

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI


Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

1/2023



1/2023

E-ISSN 2181-1466  
  
9 772181146004

ISSN 2181-6875  
  
9 772181687004

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2023, № 1**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M. Filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti SE. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V. Kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A. Texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E. Fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, Psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva M.K., filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev D.R., fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov B.B., kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

Jo'rayev N.K., siyosiy fanlar doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ</b>		
<b>Rasulov T.H., Dilmurodov E.B.,</b>	Kompakt qo‘zg‘alishli umumlashgan Fridrixs modelining ba’zi spektral xossalari	4
<b>Ismoilova D.E.</b>	Fermionli fok fazodagi uchinchi tartibli operatorli matritsaga mos kanal operator va uning spektri	9
<b>Jumaev J.J., Tursunova S.F., Ibragimova Sh.E.,</b>	Inverse coefficient problem for heat equation in the bounded domain	15
<b>Djurayev D.R., Turayev A.A., To`rayev O.G.</b>	Bi <sub>1.7</sub> Pb <sub>0.3</sub> Sr <sub>2</sub> Ca <sub>n</sub> Cu <sub>n-1</sub> O <sub>y</sub> vismut asosli kupratlarning olinish texnologiyasi	21
<b>Umarov Sh.A.</b>	Shifrlash algoritmlarida kriptobardoshli mantiqiy amallardan foydalanish usullari	25
<b>Ахмедов О.С.</b>	Свободные и вынужденные осесимметричные колебания систем вязкоупругих цилиндрических оболочек	30
<b>Исломов Б.И., Жураев Ф.М.</b>	Локальные краевые задачи для нагруженного уравнения параболо-гиперболического типа, вырождающегося внутри области	34
<b>Амироров С.Ф, Шаропов Ш.А, Сатторов Т.А.</b>	Дифференциал трансформатор датчиклар оддий ва маҳсус структурали ночилик магнит занжирларининг математик моделлари	43
<b>Турдиев X.X., Суяров Т.Р., Наврузова М.Н.</b>	Начально-краевая задача для системы интегро-дифференциальных гиперболических уравнений	50
<b>Tosheva N.A.</b>	Lower bound of the essential spectrum of a family of $3 \times 3$ operator matrices	57
<b>Akramova D.I.</b>	Estimates for convolution operators related to $A_\infty$ type singularities	63
<b>Jo‘raqulova F.M.</b>	Bozonli fok fazodagi operatorli matritsaga mos Faddeyev tenglamasi	72
<b>Rasulov T.H., Ne’matova Sh.B.</b>	Umumlashgan Fridrixs modeli kvadratik sonli tasvirining komponentlari	77
<b>Seytov Sh.J., Ochilova G.B.</b>	Баъзи даврий реакцияларнинг математик моделлари	82
<b>Sirliyeva F.A., Khudaybergenov K.K., Muminov Z.E.</b>	Fuzzy neural network and agent technologies in the structural-parametric modeling of technological systems	87
<b>Tosheva N. A., Qodirov S. O.</b>	Python dasturlash tili yordamida matritsa sonli tasvirini kompleks tekislikda tasvirlash algoritmi	93
<b>Хасанов И.И., Хасанов К.Х.</b>	Начально-краевая задача для адвекции - дисперсионного уравнения дробного порядка	100
<b>Husenov B. E.</b>	Poisson representation for $A(z)$ -harmonic functions belonging to some class	107
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Nigmatova L. X.</b>	Lisoniy sistemaning pog‘onaviyligi va unda gipo-giperonimik munosabatlari	116
<b>Sadigova S.I.</b>	Phraseological combinations with ordinal numbers in English	123
<b>Abdulxayrov D.P.</b>	-Gan ekan shaklining mazmuniy ko‘rinishlari	127
<b>Xodjayeva D.I., Hoshimova G.M.</b>	Erkin Vohidov she’rlarida ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari	131

<b>Ismatullayeva I.I.</b>	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o‘rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
<b>Mehmonova Y. Ch.</b>	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
<b>Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.</b>	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
<b>Rajabov E.E.</b>	O‘zbek va ingliz tillaridagi “oila” tushunchasi konceptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
<b>Ruziyeva N. X.</b>	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
<b>Xodjayeva D.I., Safarova M.H.</b>	Ingliz tilini o‘qitishda fonetik interferensiyaning o‘rnini	157
<b>Samandarov G.Y.</b>	Sodda gap ko‘rinishidagi “hasharot” lug‘aviy ma’no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o‘ziga xos xususiyatlari	161
<b>Sayfullayev B.N.</b>	Noqardosh tillarda o’zlashtirmalik (o‘zbek va fransuz tillari misolida)	165
<b>To‘yboyeva Sh.R.</b>	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
<b>Абдурахманова М.У.</b>	“Кўрлик” касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидаги лингвистик-семантик тадқики	174
<b>Ахмедова М.Х.</b>	Ўқув жараёнига тааллуқли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
<b>Вахидова Ф.С.</b>	Дискурсда диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг воқеаниши	183
<b>Avezov S.S.</b>	A Corpus-based approach to phraseology research	189
<b>Kobilova A.B.</b>	Ingliz va o‘zbek tibbiy perifrazalarining semantiq mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
<b>Bobokalonov R.R., Narzulaeva D.B.</b>	Vocabulary of the Qur‘an in the object of theolinguistics	203
<b>Nazarova G.P.</b>	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
<b>Raxmatov A.P.</b>	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatic ma’nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida )	215
<b>Sayidova G.Y.</b>	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o‘xshatishlarning leksik-grammatik tabiatи	221
<b>Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.</b>	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
<b>Бозоров З.А.</b>	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
<b>Мавлонова М.Д.</b>	Инглизча аҳборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлашиш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ҳодисалари	245
<b>Шарипова А.А.</b>	Луғат корпусини яратиш технологияси	251
<b>Hayotova D.Z.</b>	Tushuncha va so‘z munosabati	255
<b>Mamatova D.M.</b>	Xitoy tilida ta’m bildiruvchi sifatlar tahlili	259
<b>Сафаров Ф.С.</b>	Маънодошлиқ каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳақида	266
<b>Akhmedova D.B.</b>	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272

### **ADABIYOTSHUNOSLIK \*\*\* LITERARY CRITICISM \*\*\* ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>Темирова Дж. Х.</b>	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
<b>Насруллаев Э.Ж.</b>	Алишер Навоий “Хикмат ва ибрат достони”нинг ғоявий таҳлили	284
<b>Шарипова Л.Ф.</b>	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

XUSHMUOMALALIKNING NUTQ ODOBIDA IFODALANISHI

Rasulov Zubaydullo Izomovich,

Buxoro davlat universiteti

dotsenti, DSc

[z.i.rasulov@buxdu.uz](mailto:z.i.rasulov@buxdu.uz)

Yuldasheva Feruza Erkinovna,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

[f.e.yuldasheva@buxdu.uz](mailto:f.e.yuldasheva@buxdu.uz)

**Annotatsiya** Ushbu maqolada nutq odobida xushmuomalalik kategoriyasini tavsiflash masalalari yoritilgan. Zamonaliv tilshunoslik bo'yicha xushmuomalalik tadqiqotlari antropologik, etnolingvistik, pragmatik, ijtimoiy-psixolingvistik tadqiqotlarning bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Turli yondashuvlar til nazaruyasi va amaliyotida odob-axloq qoidalari, madaniy jihatdan o'ziga xos omillar va vaziyat omiliga nisbatan muloyimlikni o'rghanadi.

**Kalit so'zlar:** xushmuomalalik, tilshunoslik, tamoyil, kuzatuv, nutq, kommunikativ maqsad, tadqiqot, nazariya, xatti-harakatlar, nutq faoliyati.

**Аннотация.** В данной статье освещаются вопросы описания структуры категории вежливости в речевом этикете. Исследование вежливости в современном языкоznании проводится в рамках антропологических, этнолингвистических, прагматических, социо-психолингвистических работ. Различные подходы исследуют вежливость в языковой теории и практике, в соотношении с нормативными рамками поведения, культурно-специфическими факторами и фактором ситуации.

**Ключевые слова:** вежливость, лингвистика, принцип, наблюдение, речь, коммуникативная цель, исследование, теория, поведение, процесс общения, речевая деятельность.

**Abstract.** This article highlights the questions of describing the structure of politeness category in speech etiquette. The study of politeness in modern linguistics is carried out in the framework of anthropological, ethnolinguistic, pragmatic, sociopsycholinguistic works. Different approaches explore politeness in language theory and practice, in relation to the normative framework of behavior, cultural-specific factors and the situation factor.

**Keywords:** behavior, theory, courtesy, linguistics, principle, monitoring, speech, communicative purpose , theory, exploration, speech activity.

**Kirish.** O'zbek millatining ming yillik tarixida so'ngi yillarda erishgan yutuqlarimiz alohida o'ren tutadi. Mustaqillik necha asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosimizni nafaqat o'rganish, balki uni davr talablari asosida qaytadan idrok etish va milliy manfaatimizga xizmat qildirish vazifasini oldimizga qo'ydi. Boy tajribalarimiz negizida milliy istiqlol mafkurasining yangicha tamoyillari yaratildi. Davr barcha ziyyolilar qatori tilshunoslar oldiga ham yangi va ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni lo'nda qilib, bir tomonidan, tilshunoslikning nazariy masalalarini jahon andozalari darajasida tadqiq etish, ikkinchi tomonidan, uning amaliy jihatlari, aniqrog'i, nutqiy madaniyat masalalari bilan shug'ullanish tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Darhaqiqat, tilining barcha qatlamlaridagi birliklarni tartibga keltirish, ya'ni adabiy tilimizning qat'iy me'yorlarini belgilash, ularni imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash bugunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yuksaltirish muhim bo'lib qoladi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirotchisiga aylantirish, yoshlарimizni esa erkin, shu bilan birga, odatdagи, an'anaviy usullardan voz kechib, yangicha fikrlashga o'rgatishni maqsad qilib qo'yar ekan, bunga til madaniyatjisiz erishib bo'lmaydi.

To'g'ri, nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida o'rtaga qo'yib kelinganligi ham sir emas. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, shunga qadar Misr va Assuriyada, Hindiston va Xitoyda mavjud bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Gap shundaki, u paytlarda davlat arboblarining obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Yunon notig'i Demosfen (eramizdan oldingi 384-322) va Rim notig'i Sitseron (eramizgacha 106-43) larning hayoti bunga misol bo'la oladi.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug‘ullanish o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Ulug‘ turkolog olimlar Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u biling» asarlari bu masalaning juda qadimdan o‘rtaga qo‘yib keltinganligidan dalolat beradi. U paytlar «nutq odobi» deb yuritilgan sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar va ustozlar oldida gapirganda odob saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik va tilyog‘lamalikni qoralash singari bir qator qoida va ko‘rsatmalar bugun biz «nutq madaniyati» deb atab kelayotgan tushunchaning aynan o‘zidir.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devon»ida nutq odobi uchun ahamiyatli bo‘lgan til ma’lumotlari bilan birgalikda nutq, nutq madaniyati, nutqiy go‘zallikka oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Birgina misol: Ko‘p sukutga qush qo‘nar, Ko‘rkluk kishiga so‘z kelar, ya’ni, shoxi ko‘p, shoxlari o‘ralib ketgan daraxtga qush qo‘nadi, yaxshi kishiga so‘z (maqtov) keladi. Yana: Ardam boshi til, ya’ni odob va fazilatning boshi tildir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u biling» dostonida ham «Til fazilatlari, foyda va zararları haqida», «Til ardam» deb nomlangan maxsus boblar bo‘lib, ular so‘zlash madaniyatiga bag‘ishlangan. Ayrim namunalar keltiramiz.

So‘zingni ko‘dazgil boshing bormasin,  
Tilingni ko‘dazgil tishing sinmasin...  
(So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin,  
Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin...)  
Esanlik tilasa saning bu o‘zung,  
Tilingda chiqarma yarog‘siz so‘zung.  
(Sening o‘zing esonlik tilasang,  
Tilingdagi yarog‘siz so‘zingni chiqarma).  
Bilib so‘zla so‘z biligka sonur,  
Biligsiz so‘z o‘z boshini yeyur.  
(Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi,  
Nodonning so‘zi o‘z boshini yeydi).

Bu o‘rinda biz ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning nomini alohida ehtirom bilan tilga olamiz. O‘z ijodi bilan so‘z qudrati va notiqlik san’atini yuksak darajaga ko‘targan alloma nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug‘ullangan. U «Mahbub-ul qulub» asarining 24-bobini voizlikka (notiqlik san’atiga) bag‘ishlagan, «Muhokamat-ul lug‘atayn» va «Majolis-un nafois» asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, turkiy (o‘zbek) tilining boshqa tillar orasidagi o‘rnini belgilab berishga hamda nutq madaniyatini o‘rganishga qaratilgan edi.

“Xamsa” ning har bir dostonida so‘zga bo‘lgan ehtiromini alohida qayd qiladi. Quyida dostonlarning nasriy bayonidan ayrim parchalarni keltiramiz. «Hayratul abror»dan: So‘z gavharining sharafi shunchalik yuksakki, gavhardek qimmatbaho tosh ham unga sadaf bo‘la olmaydi.

So‘z jon bo‘lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam unga ehtiyoj sezadi. So‘z dunyodagi barcha ko‘ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og‘iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisolai bir po‘lat zanjir bo‘lsa, so‘z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanda ochilgan bo‘lsa, so‘z durlari unga qo‘ngan shabnamlardir. So‘z odamning tanasiga pok ruh bag‘ishlaydi. So‘zdan tandagi tirik ruh halok bo‘lishi mumkin.

Yaxshi so‘z bilan o‘lganni tiriltirgani uchun Iso payg‘ambar o‘zini “Jonbaxsh“ deb atagan. So‘z tufayli Xalil o‘zini o‘tga tashlagan. Jabroil ham so‘z yukiga hammol bo‘lgan. Tangri insonni sirlar xazinasi darajasiga ko‘tarib, uni so‘zlash qobiliyatiga ega etib, shu sabab hayvonlardan yuksak qilib yaratdi. Agar, qo‘l bilan berib xayr qilish iloji bo‘lmasa, til bilan ham naf yetkazish mumkin. Odamni bir og‘iz yaxshi so‘z bilan xursand qilish kerak bo‘lgan vaqtida unga xazina bersang ham, u qaramaydi. So‘z, bilan el o‘limdan najot topadi, so‘z bilan o‘lik tan qayta tirladi. So‘z bilan dinsizlar musulmon bo‘ladi, so‘z bilan hayvon deganining insonga aylanishi mumkin. Bir so‘z bilan qancha balolar daf bo‘ladi, qancha boylik sochsang ham bunday nafga yetishmaydi. Insonga xos konning gavhari, bu - so‘zdir, odamzot gulshanining mevasi ham shu so‘zdir.

“Sab’ai sayyor» dan: Har bir inson dunyoga kelgach, u so‘z bilan najot topadi. Eng avval so‘zni tavhid so‘zi (xudoga yetishuv) deb bil, chunki vahdat ahlida (birlik ahlida) bunga ikkilish yo‘qdir. Avvalu oxiringga nazar solib, boshi ham, oxiri ham so‘z ekanligini anglab ol! Haq insonni hayvondan mumtoz aylab (ajratib, saralab), uni o‘ziga mahram qildi. Agar kamolotli xohish bildirib, ma’no durriga intilib, so‘z libosini kiysa, ul tovlanib turgan ipak matoday tuyuladi. Chunki u so‘zning nozik ipagidan kiyib, go‘zalning jamolini o‘ziga yoqimli qiladi.

Bularning barchasi so‘zdagi mo‘jiza, uning hikmatlari esa elni ojiz qoldiradi. U bir o‘likka so‘zi bilan jon berib, so‘z bilan jonga ruh kirgizadi.

Oolloh, Oolloh, qanday so‘zdur bu so‘z, bundan ortiq ham yana bo‘lurmu so‘z! So‘z jism bo‘stonidagi daraxtdir, so‘z daraxtlardagi mevadir. Insonning jismi gulshan bo‘lsa, nutq undagi xush ovoz bulbuldir. Agar so‘z bo‘Imaganda baxtsizlik yuz bergan bo‘lur edi.

Ma’noli so‘z noziklikda jon rishtasiday, uning rohati rishtaga sarrishta jondaydir.

Alisher Navoiyning til madaniyatiga oid fikrlari uning boshqa asarlarida ham aytilgan. Ularning ayrimlarinigina keltirish bilan chegaralanamiz: Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz. So’zni ko‘ngilda pishqarmaguncha tilga keltirma, va har nekim, ko‘ngilda bor tilga surma. Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur. Ko‘p demak so‘zga mag‘rurlik, ko‘p yemak nafsga ma’murlik. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, gar napisand zahir bo‘lsa, tilning ofatidur.

Yana bir allomaning nutq madaniyatni va nutqiy me’yor, nutq qoidalariga oid qarashlariga qisqacha to‘xtalamiz. Bu XV – XVI asr ma’naviyatining yirik vakili Mavlono Husayn Voiz Koshifiyidir. Uning «Futuvvatnomai sultoniy» asarining «Tariqat ahlining odobi» deb nomlangan beshinch bobida inson ma’naviyati va madaniyatiga oid qarashlari e’tiborga molikdir. Olim bu bobda insonning yetti a’zosi – ko‘z, qulqoq, til, qorin, og‘iz, qo‘l va farq (tanosil a’zosi) ni saqlash odobi haqida mulohaza yuritar ekan, ularni inson organizmi deb emas, balki inson ma’naviyati va axloqi namoyon bo‘luvchi ramziy belgilar sifatida talqin qiladi [1, 145].

Jumladan, uning muomala madaniyatni va muloqot odobi haqidagi qarashlari ana shu umuminsoniy fazilatlarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Koshifiy quyidagilarni yozadi: «Tilning odobi qaysi deb so‘rasalar, bu olti narsaga tilni ochish va sakkiz narsadan tilni saqlash deb aytgil. Tilni ochish kerak bo‘lgan narsalar qaysi deb so‘rasalar, aytgil: hojat zarurati yuzasidan ko‘ngillarda yashirin bo‘lgan rozni izhor etish, mazlumlar faryodiga javob berish va marhumular imdodi uchun so‘z aytish. Chunki bu so‘zlar orqali zolimning zulmi mazlumlar boshidan ko‘tarilishi mumkin.

Tilni saqlash lozim bo‘lgan narsalar qaysi deb so‘rasalar, aytgil: birinchidan, yolg‘on gapirishdan, zero, yolg‘onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchisi, va’daga xilof gapirish va munofiqona so‘z aytishdan. Uchinchi, g‘iybat va bo‘hton gaplardan, chunki bo‘hton fosihlar ishidir. To‘rtinchisi behuda bahsu munozaradan, ayb qilishdan va gap tashishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchisi, o‘zini maqtash va ta‘riflashdangi, bu xudbinlikka olib keladi. Oltinchisi, navkar va xizmatkorlarni la’natlashdan. Yettinchi, qarg‘ashdan, duoibad qilishdan, chunki bu jonusi dilning ofatidir. Sakkizinchisi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan».

Olim shu bobning «Suhbat odobi haqida» deb nomlangan oltinchisi faslida til odobi haqidagi mulohazalarini davom ettirib, quyidagilarni bayon qiladi: «Bilgilki, odamzodning sharafi nutq bilan va nutq odobiga rioya qiladigan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt savob uchun ishlatalishi, to‘g‘ri va haqqoni bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jim turgan ma‘qul. Shayxlar va boshqa martabaga erishganlar uchun ham, hali martabaga erishmagan kishilar, muridlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo‘lgan bir qancha suhbat odobi mavjud. Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak deb so‘rasalar, aytgilki, quyidagi sakkiz qoidani saqlash kerak: birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so‘z aytsin. Ikkinchidan, dag‘allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To‘rtinchidan, ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so‘zning qimmati-qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisol urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qay yerga ekmang, unib chiqmaydi.

Agar martabaga yetmaganlarning suhbat odobi nechta deb so‘rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil. Birinchidan, so‘ramaguncha gapirmas. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o‘ngu so‘liga qaramas. To‘rtinchidan, g‘arazli va kinoyali gaplarni gapirmas.

Beshinchidan, qattiq gapirmas. Betgachoparlik qilmas. Oltinchidan, (pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin. Yettinchi, odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmas. Sakkizinchidan, ko‘p gapirmas. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham soz gapirishni shior etsin.

Agar qaysi til bilan so‘z so‘zlaysan deb so‘rasalar, sidqu-sadoqat tili bilan deb aytgil. Agar so‘zni qaysi qulqoq bilan eshitasan deb so‘rasalar, qabul qulog‘i bilan aytgil. Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir. Daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi.

Voiz Koshifiy mana shu tarzda asarning oltinchisi bobining ikkinchi faslida ma’raka tuzuvchi so‘z ahli, ya‘ni notiqlar haqida ma‘lumot berib, ularni uch toifaga ajratadi: «birinchi toifa – maddohlar, g‘azalxonlar va saqqolar (meshkobchilar). Ikkinchisi toifa – xossago‘ylar (dorifurushlar) va bisotandozlar (ko‘rgazmachilar). Uchinchi toifa – qissa so‘ylaguvchilar va afsona aytuvchilar.

Ularning har birining fazilatlari haqida so‘z yuritib, adab shakllarini birma-bir ko‘rsatib, nutq so‘zlaganlarida me’yorni saqlash lozimligini bir necha bor takrorlaydi.

**Tadqiqot metodi.** O‘rta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyati uning xalq ommasi hayotining turli jabhalarini qamrab olganligida edi. O‘sha davr nutqiy san’at ustalarining nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilganliklari ham shundan dalolat beradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, muomala odobini saqlash nihoyatda og‘ir va mas’uliyatli vazifa. Garchi uning umuminsoniy va milliy qoidalari mayjud bo‘lsa ham, u har bir kishida ularning o‘zligini ko‘rsatuvchi alohida fazilat sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bir vaziyatdagi muomala jarayoni ikkinchi holatda qaytarilmasligi mumkin. Har qalay, biz odobning umuminsoniy aqidalaridan xabardor bo‘lishimiz zarur.

Muloqot jarayonida har ikki omil – til va tildan tashqaridagi omillar baravar ishtirok etganligi hamda birdek ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun bu o‘rinda ularni ajratishga harakat qilmaymiz. Asosiy e’tiborni jarayonning o‘ziga qaratamiz.

Tushunishimizcha, nutq odobining zarur sharti yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeyidan qat‘i nazar, suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiyy munosabat va hurmat-ehtirom bo‘lib hisoblanadi. Mana shu omillar bo‘lgan joyda so‘zlovchining o‘z shaxsini ustun qo‘yishiga, suhbatdoshini mensimasligiga, fikrini ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishiga o‘rin qolmaydi. Bunday paytlarda, odatda, suhbat ijobjiy yakunlanadi.

Faqat shu narsani ta‘kidlash mumkin bo‘ladiki, suhbat jarayonida ohang juda katta vazifani bajaradi. Kayfiyat qanday bo‘lishdan qat‘i nazar bu jarayonda eng ma‘qul ohangni tanlash so‘zlovchini maqsadiga erishtiradi. So‘zlarni aniq-ravshan talaffuz qilish, muloyim va mayin ovoz bilan hovliqmasdan gapirish tinglovchida hamisha so‘zlovchini tushunishga harakat qilish istagini paydo qiladi. Birgina “o‘tiring” so‘zini turli ohangda talaffuz qilish bilan vaziyatga qarab iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq, jerkish kabi ma‘nolarni ifoda etish mumkin. Shuning uchun ham gapirganda ohangga ehtirot bo‘lish lozim.

Mustaqillikdan keyingi o‘tgan davrda muomala jarayonidagi ayrim til birliklariga munosabat o‘zgardi. Kishilar bir-birlari bilan uchrashganlarida salomlashuv jarayonida qisqa qilib “Salom” deyishlar kamaydi va uning o‘rnini “Assalomu aleykum” egalladi. Hol-ahvol so‘rashish jarayonida Alloh va dinga aloqador bo‘lgan so‘zlar bemalol ishlatalidigan bo‘ldi. “O‘rtoq falonchiyev” deyishlar kam eshitiladigan bo‘ldi. “Muhtaram”, “hurmatli”, “birodar” so‘zları faollashdi. Bu holatlar yana asta-sekinlik bilan muloqot jarayonida sharqona urf-odatlarga qaytish istagini ustunlik qilayotganligidan dalolat beradi. Mana shu istakni amalga oshirish jarayonida ayrim er-xotinlar o‘rtasidagi bir-birlarining ismlarini aytib yoki ba’zi farzandlarning o‘z ota-onalarini ruslarga taqlid qilib, sensirab murojaat qilishlari yo‘qolib ketishidan umid qilish mumkin.

Qayerda nima haqida gaplashishni bilish ham nutq odobining eng zarur shartlaridan sanaladi. Masalan, to‘yda o‘limdan va azadan gapirish ma‘qul bo‘lmaganidek, azada ham to‘yu tantanadan so‘zlash yoki kulib o‘tirish, bo‘lar-bo‘lmasga yonma-yon o‘tirganlarni gapga tortish ma‘qul ish emas. Atrofdagilarning kayfiyatini, mavqeい va yoshini hisobga olmasdan turib hazil qilish yoki latifa aytish ham farosatli kishining ishi emas. Maqtov va xushomad ham hammaga yoqadi, ammo u nosamimiyy bo‘lsa, surʼat sanalmaydi.

Suhbat jarayoni turli paytlarda, turli joylarda yuz berishi mumkin. Har bir vaziyat o‘z odob qoidalariiga ega. Ammo ularning barchasi uchun umumiyy holat shuki, so‘zlashdan ko‘ra tinglashga ko‘proq ahamiyat berish lozim bo‘ladi. Yoshi kattalarning gapirishiga ko‘proq imkoniyat berish lozim. Suhbatdoshning gapini mumkin qadar ma‘qullab turish, agar bildirayotgan fikrlari ma‘qul bo‘lmasa, buni yotig‘i bilan tushuntirish, hech imkon bo‘lmasa, suhbat mavzusini boshqa tomonga burish lozim topiladi.

Xullas, nutq odobi muloqot jarayonida nihoyatda zarur bo‘lib, u insonda an’anaviy urf-odatlarni o‘zlashtirish, ota-onsa, ta’lim muassasalari, atrof-muhit, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o‘qish davomida o‘zlashtirib boriladi.

Harqalay, bugunga kelib nutq madaniyatiga bo‘lgan talab tubdan o‘zgardi. Chunki mustaqil O‘zbekiston kelajakda o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu yo‘lda adashmay borish uchun milliy istiqiol g‘oyasini ishlab chiqdi. Ana shu milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda nutqiy ta’sirchanlik ham alohida mavqega ega. O‘rnida ishlataligan so‘zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama’ni fikr har doim odamlarning xulq-atvoriga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muloqot jarayonida fikrga, sog‘lom g‘oyaga ega bo‘lish masalaning bir jihat. Uning boshqa bir muhim jihat ana shu fikrlarni bayon eta olish qobiliyatidir. O‘zbek xalqi dunyoda o‘z ma‘naviyati va madaniyati mayjud bo‘lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalinishda ham qadimiy an’analari, odat va ko‘nikmalariga ega. Zero, ana shu ana’na va odatlar har bir xalqning o‘zligini ko‘rsata oladigan belgilarni sanaladi. Ona tilimizning bu ijtimoiy jihatlari tadqiqotchilarimizning ham e’tiborini tortgan. Keyingi yillarda

ushbu mavzuga bag'ishlangan ko'plab taddiqot ishlari maydonga keldiki, biz mazkur mavzuni yoritishda bevosita ana shu kuzatishlar natijalariga asoslanamiz.

Ma'lumki, inson faoliyati uning jamiyat mahsuli sifatida mavjudligi sanalib, ana shu faoliyat jarayonida u ma'lum harakatlarni amalgalashadi hamda jamiyat a'zolari bilan til muomalasida: muloqotda, fikr almashishda bo'ladi. Ammo bu muomala tildan foydalanuvchilarning madaniyati darajasiga ko'tarilgunga qadar uzoq davrni bosib o'tishi tabiyi. O'zbek nutqi ham bugungi taraqqiyot bosqichiga yetgunga qadar ana shunday vaqt sinovidan o'tgan.

Nutq odobi insonning umumiyligi axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarining asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan.

Nutq odobi deganda aytlishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqni ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhabatga debocha bo'ladi, tinglovchiga yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhabatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, "Assalomu aleykum"ning javobi "Vaalaykum assalom"dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham tumtoqlashib ketdi, ya'ni salom berish uchun ham, uning javobi uchun ham birgina "Salom" ishlatiladigan bo'ldi. Bu tarixiy an'analarimizdan chetlashishdir.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida vositalar mavjud. O'qituvchi ularni o'z o'rniда ishlatishda hamma vaqt o'z shogirdlari uchun o'rnakdir. Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yning ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun kechirim so'rash o'z gururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. "Kechirasiz, mendan o'tibdi" yoki "avf eting, bundan so'ng takrorlamaslikka harakat qilaman" deyish bilan kishi o'zining odobliliginini namoyish etadi, xolos.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tiliimizda xayrlashganda ishlatiladigan "sog' bo'ling", "xayr, ko'rishguncha", "xayr, omonlikda ko'rishaylik" kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda "xayr, sog' bo'linglar", "xayr, yaxshi qolinglar" iboralarini ishlatsa, o'rinli bo'ladi. Bolaga yaxshilik qilgan, aytigan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga minnatdorchilik ifodalaydigan chirolyi ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rniда ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni "ofarin", "barakalla", "rahmat", "otangizga rahmat", "minnatdorman" kabi so'zlar bilan rag'batlantirishi mumkin.

Hadislarda aytlishicha, "Qur'on Karim"da ehsonga loyiq kishilarning birinchi navbatda ota-onasi haqidagi belgilab beriladi. "Al-Isro" surasining 23-24 oyatlarida ota-onasi yaxshilik – Allah taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-onasi qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmat bilan muomalada bo'lishi kerak. Ota-onasi farzandni dunyoga keltirish bilan birga, farzandiga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmey, haqqiga doimo duo qilib turishi ta'kidlanadi.

"Qur'on"ning ma'lum oyatlari shirinsuxanlikka bag'ishlanadi. Shirinso'zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obro'sini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. Shunga ko'ra, "Qur'on"da har bir inson shirinso'z bo'lishi ta'kidlanadi. Boshqa bir oyatda Allah kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: "Kishilarga chirolyi so'zlar so'zlangiz" ("Baqara" surasi, 53-oyat) so'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'pollik qilmaslik, xushmuomala bo'lish odoblari hayotda tinchlik va baxt saodatga erishishda yorug' yo'l sifatida talqin etiladi: "Allah tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalarimizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqko'l bo'lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar". ("Ol - imron" surasi, 159-oyat).

Haqiqatdan ham so'zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur bo'lgan, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. "Qur'on"da insonni axloqiy kamolga yetkazishda yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lish ham katta ahamiyatga ega, deb ko'rsatiladi. Yaxshi kishilar bilan ham, yomon kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lganda, albatta uning o'ziga xos odob qoidalari bor. Islomda ruxsat so'rash va salomlashish odoblariga ham e'tibor beriladi. "Nur" surasining 27-28 oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilganki, bu tavsiyalarga rioya qilish insonning ma`naviy kamolotidan dalolat beradi.

Islomda salomga alik olish xususida “Niso” surasining 86-oyatida “Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo’lmasa) o’sha iborani qaytaringlar”, - deyiladi.

Insonning eng go’zal qilib turadigan narsasi, uning shirinso’zligi va xushmuomalaligidir. “Qur’on”da haqiqiy inson bir-birini kamsitmasligi, boshqalarni hurmat qilishi, shu bilan kishilar o’rtasida totuvlikni mustahkamlashi mumkin ekanligi kabi g’oyalar ham mavjud. Kishilarning bir-birini hurmat qilishi, o’zaro do’stlik aloqalarini mustahkamlashi, kelishmovchiliklarning oldini olishda, xolis komil insonga xos bo’lmasgan pastkashliklardan saqlanishda ular katta ahamiyatga ega.

**Muhokama.** Xushmuomalalik tilshunoslik fanining predmeti sifatida tilshunoslarning diqqatini uzoq vaqtadan beri tortib keladi. Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalikni o’rganish antropologik, etnolingvistik, pragmatik, ijtimoiy va psixolingvistik izlanishlar doirasida amalga oshiriladi. Turli yondashuvlar til nazariysi va amaliyatida xushmuomalalikni, xulq-atvorning me’yoriy doirasi, madaniyatga xos omillar va vaziyat omili bilan bog’liq holda o’rganadi.

Ushbu tadqiqot zamonaviy o’zbek va ingлиз tillarida xushmuomalalik sohasi tuzilishini bat afsil tavsiflashga urinishdir. Nutq xulq-atvori normalari muhim milliy o’ziga xoslik bilan ajralib turadi, bu esa ushbu tilda so’zlashuvchi xalqlarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari bilan bog’liq. Biroq, muloqot ishtirokchilari o’zaro tushunishga erishmoqchi bo’lsalar, ya’ni ular nutq faoliyatida hamkorlik tamoyiliga rioya qiladigan bo’lsalar, muloqot jarayonida amal qiladigan yoki amal qilishlari kerak bo’lgan ba’zi umumiyy qabul qilingan qoidalar mavjud. Ushbu tamoyil suhbatni o’tkazish va nutqni qurish uchun quyidagi qoidalar va strategiyalarga rioya qilish zarurligini anglatadi, masalan [2, 55-61]:

“Mavzu yuzasidan gapiring” // “Be relevant”//, “Говори по существу дела”

“Dalili kam bo’lgan narsani aytmang” // “Do not say that for which you lack evidence”//,

“Qisqaqaroq ifoda eting” // “Be brief”//, “Будь краток”

“Noaniqlikdan saqlaning” // “Avoid ambiguity”// “Избегай двусмысленности”

Yuqorida sanab o’tilgan qoidalar eng samarali ma’lumot almashishga qaratilgan suhbatda, masalan, biznes yoki ilmiy aloqada kuzatiladi, ammo kundalik nutqda, kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, bu qoidalarga har doim ham rioya qilinmaydi va ba’zan ular qo’pol buziladi. Shubhasiz, G.Grays (G. Grice) ta’kidlaganidek, suhbatdoshlarning nutqiy o’zaro ta’sirini tartibga soluvchi va estetik, ijtimoiy yoki axloqiy xususiyatga ega bo’lgan boshqa tamoyillar mavjud. Ushbu tamoyillardan biri odoblilik prinsipi yoki boshqacha aytganda, takt prinsipi bo’lib, uning ta’siri ko’pincha nutqni loyihalashda, norasmiy muloqotda vositalarni tanlashda hal qiluvchi rol o’ynaydi [3, 41-58]. R.Lakoff xushmuomalalik tamoyilini uchta qoida shaklida shakllantiradi [4, 292-305]: “O’z fikringizni majburlab uqtirmang” // “Do not impose”// “He навязывай своего мнения” “Suhbatdoshga tanlov imkonini bering”// “Give options”// “Давай собеседнику возможность выбора” “Tinglovchini yaxshi his qiling. Do’stona bo’ling”// “Make the listener feel good. Be friendly”// “Будь доброжелателен”

Xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish jamiyat a’zolarining xulq-atvoriga ma’lum cheklovlarini qo’yadi, bu esa suhbatdoshning manfaatlarini hisobga olish, uning fikrlari, istaklari va his-tuyg’ularini hisobga olish va iloji bo’lsa, unga yuklangan vazifalarni yengillashtirishdan iborat. Xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish pirovardida ijtimoiy muvozanat va do’stona munosabatlarning maksimal samaradorligiga erishishga qaratilgan. Nutq jarayonining pragmatik nazariyasida xushmuomalalik universal prinsip sifatida qaraladi, bu nutq o’zaro ta’siri amaliyatida hamkorlik tamoyiliga qaraganda muhimroq tartibga soluvchi rol o’ynaydi. Xushmuomalalik prinsipi - bu “mojaroli vaziyatlarning oldini olishga” qaratilgan nutq xatti-harakatlarining maxsus strategiyasi sifatida belgilanadi, uning maqsadi “yuzni yo’qotish” // “потерять лицо” xavfi mavjud bo’lgan vaziyatlarda “yuzni saqlab qolish”// “сохранить лицо” hisoblanadi. J. Lich xushmuomalalik tamoyilini yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan ma’lum bir aloqa strategiyasi deb hisoblaydi, bu ko’pincha G. Graysning aniqlik va dolzarblik tamoyillarini buzadigan bilvosita, allegorik ifoda usullariga olib keladi [5, 45]. U buni maksimal darajada amalga oshiradi [6, 40-52]:

1. Takt maksimasi (the tact maxim). Bu xususiy soha chegaralarining maksimasidir. Ideal holda, har qanday kommunikativ akt ishtirokchilar o’rtasida ma’lum masofani ta’minlaydi. Unga ko’ra, quyidagi qoidaga rioya qilish kerak: “Suhbatdoshning kommunikativ maqsadini muhokama mavzusiga aylantirishga, agar bu maqsad u tomonidan aniq (ochiq) belgilab qo’yilgan bo’lsa, joizdir.” Siz potensial xavfli mavzularga (shaxsiy hayot, shaxsiy imtiyozlar va boshqalar) tegmaslik kerak.

2. Saxovat maksimasi (maxim of generosity). Bu suhbatdoshga og’irlik qilmaslik, uni kommunikativ harakat jarayonida hukmronlik qilishdan himoya qiladi. Misol uchun, taxmin shunday shakllantirilishi kerakki, uni kechiktirish mumkin, suhbatdosh va’da yoki qasam bilan bog’lanmasligi kerak. Yaxshi muloqot akti muloqot ishtirokchilari uchun noqulay bo’lmasligi kerak.

3. Rozilik maksimasi (maxim of agreement). Bu boshqalarni baholashda pozitivlikning maksimasidir ("Hukm qilmang, siz hukm qilinmasligingiz uchun", "Boshqalarni qoralamang"). Nutqning o'zaro ta'siri sodir bo'ladijan muhit nafaqat suhbatdoshlarning bir-biriga nisbatan pozitsiyalari, balki har birining dunyoga nisbatan pozitsiyasi va bu pozitsiyalarning mos kelishi bilan ham belgilanadi. Agar dunyonи baholash (ijobiy yoki salbiy) suhbatdoshning bahosi bilan mos kelmasa, bu o'z kommunikativ strategiyasini amalga oshirishni sezilarli darajada murakkablashtiradi.

4. Kamtarlik maksimasi (maxim of modesty). Bu maksim o'z-o'ziga aytigan maqtovni rad etishdir. Kommunikativ harakatni muvaffaqiyatlар qo'llash shartlaridan biri bu real, iloji bo'lsa, obyektiv o'zini o'zi baholashdir. O'z-o'zini hurmat qilishning haddan tashqari oshirib yuborilishi yoki kam baholanishi aloqa o'rnatishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

5. Rozilik maksimasi (maxim of agreement). Bu muxolifatdan voz kechishning maksimasidir. U yanada jiddiy vazifani hal qilish, ya'ni o'zaro ta'sir predmetini saqlab qolish, suhbatdoshlarning kommunikativ taktikasini o'zaro tuzatish yo'li bilan "mojaroni bartaraf etish" nomi bilan konfliktli vaziyatni rad etishni o'z ichiga oladi.

6. Hamdardlik maksimasi. Bu istiqbolli mazmunli suhbat uchun qulay zamin yaratadigan xayrioxlik maksimasidir. Noxushlik nutq harakatini imkonsiz qiladi. Muayyan muammo - agar suhbatdoshlar raqib bo'lmasdan, bir-birlariga yaxshi niyat ko'rsatmasalar bu befarq aloqa deb ataladi. Xayr-ehson maksimi paydo bo'lgan ziddiyat bilan nutq vaziyatining ijobjiy rivojlanishiga ishonish uchun asos beradi [7, 120].

Ijtimoiy maqsad, J. Lichning fikricha, kommunikantlar o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olishdir. Bu maqsadga muloyimlik nazariyasi javob beradi [8, 50]. P. Braun va S. Levinson turli xil taktikalar to'plamini taklif qiladilar, ular yordamida ma'ruzachi vaziyatni baholash asosida nutq xatti-harakatlarini tartibga soladi [9, 250]. Vaziyat olim tomonidan uchta mustaqil o'zgaruvchi asosida baholanadi:

- a) so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa;
- b) bir kommunikantning boshqasi ustidan hukmronligi;
- v) adresat sohasiga kirish darajasi.

Olim ma'lum bir vaziyatda "yuz-sha'nni yo'qotish" xavfini qanday baholaganiga qarab, u nutq harakatini bajarish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qiladi va agar shunday qilsa, xushmuomalalikning qaysi shaklini tanlash kerak - ochiq, aniq yoki yashirin.

**Xulosa.** Yuqorida xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi bo'yicha tilshunos olimlarning umumiy fikrlaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, norasmiy muloqotda xushmuomalalik tamoyiliga rioya qilish ingliz nutqi xulq-atvorining muhim lingvistik va ijtimoiy xarakteristikasi bo'lib, uni nafaqat tilshunoslar, balki yozuvchilar va jurnalistlar ham ta'kidlaydilar. Shunday qilib, V.Ovchinnikov inglizlarning nutq odob-axloq qoidalariga oid kuzatishlarini jamlab, shunday yozadi: "Inglizcha xushmuomalalik, odatda, boshqa fikrda bo'lish huquqiga ega bo'lgan suhbatdoshga hurmat belgisi sifatida hukmlarda vazminlikni belgilaydi. Shu sababli, qat'iy bayonotlar yoki rad etishlardan qochish maqsadida "Menga shunday tuyuladi", "Men o'ylayman", "Balki men nohaqdirman, ammo..." kabi fikrlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan iboralarni kiritish tendensiyasi aniqlik va to'g'rilikni yo'qotish uchun mo'ljallangan".

Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va zamonaviy ingliz mualliflari asarlarining matn tahlili shuni ko'rsatadiki, xushmuomalalik prinsipi nutq xatti-harakatlarida - suhbatdoshni yoki suhbat mavzusini tanlashda, bayonotlarning tabiatida, nutqida turli xil namoyon bo'ladi. Suhbatdosh nutqiga bo`lgan reaksiyalar xarakterida kelishish va kelishmovchilik shakllari va hokazolarda namoyon bo'ladi. Bu tamoyil nutqiy harakatlarning har xil turlarida har xil yo'llar bilan amalga oshiriladi: ko`rsatma, so`roq (so`roq), deklarativ va boshqalar. Bunda deklarativ gaplarda takt tamoyilini amalga oshirishning lingvistik usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu amalga oshirishning asosiy shakli bayonotning kategoriyaliligini yumshatishdir.

### REFERENCES:

1. Husayn Voiz Koshify "Futuvvatnomai sultoniy" asarining "Tariqat ahlining odobi" nomli beshinchи bobи.
2. Николаевская Р.Р. О соотношении лексического и грамматического уровней в системе современного английского языка // Филологические науки. – 1981. – №4. С. 55-61
3. Grice, H. P. Logic and conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and semantics, vol. 3: Speech acts. New York: Academic Press. 1975, pp.41-58.
4. Lakoff, R. The logic of politeness, or minding your p's and q's. In: C. Corum et al., eds., Papers from the 9 th Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society. Chicago Linguistics Society. 1973, 9:292-305.

5. Leech, *Ibid*: 132; and Betti, 2015a: 45
6. Grice, H. P. *Logic and conversation*. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics*, vol. 3: *Speech acts*. New York: Academic Press. 1975, pp.40-52.
7. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000, сmp-120
8. Leech, *Ibid*: 132; and Betti, 2015a: 50
9. P.Brown, S.Levinson “Politeness universals in language usage” – Cambridge, 1978, p-250
10. Rasulov, Z. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation*. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2943](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943)
11. Gadoeva M.I. *Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures* // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal*. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).
12. Sulaymonovna, Q. N. (2022). *Frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari*. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(12), 354-361. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/137>.
13. Tursunov, M. (2022). Использование hyporbole в разных литературных жанрах. центр научных публикаций (buxdu.Uz), 22(22). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7959](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7959)
14. Paxmatova, M. M. *Cross-cultural understanding of values in language*.<http://www.internauka.com/issues/2017/1/1908>
15. Yunusova, A. (2023). *Thinking, reading and writing critically*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 27(27). [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8733](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733).[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8733](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8733).
16. Djumayeva, N. *Comparative analysis of magical jewellery and ornaments in english and uzbek fairy tales*. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230.VOLUME 7, ISSUE 6, June. -2021,138-142. <https://media.neliti.com/media/publications/347771-comparative-analysis-of-magical-jeweller-8838f05c.pdf>
17. Kobilova Aziza Bakhridinovna. *Semantic and lingua-cultural features of English and Uzbek medical periphrases* // *International Journal on Integrated Education*. ISSN (Online): 2620-3502, Vol.5, Issue 6, 6-June 2022. P.162-167. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/3144>
18. Akhmedova, S. H. (2020). *Analysis of general characteristics of the most studied fairy tale genre in english and uzbek folklore*. *Theoretical & Applied Science*, (6), 134-136. [https://elibrary.ru/page\\_404.asp?qx=https%3A%2F%2Felibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D43852728](https://elibrary.ru/page_404.asp?qx=https%3A%2F%2Felibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D43852728)
19. Umurova, X. *Semantic Properties of the Terms of Wedding Ceremony Used in Bukhara Dialect*. JournalNX, 6(09), 58-62. <https://www.neliti.com/publications/335839/semantic-properties-of-the-terms-of-wedding-ceremony-used-in-bukhara-dialect>
20. Toshnazarovna, E. M. (2022). *The concept of the tragic in the writings of j. carol oates*. *World Bulletin of Social Sciences*, 10, 70-72. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1009>
21. Ikromovich, A. I. (2022). *Linguistic Simplicity of Aphorisms in English and Uzbek*. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12), 39-43. <https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/633>.
22. Usmonova Zarina Habibovna. (2022). *The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov*. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 63–65. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>
23. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2022). *The Principle of Politeness in the English and Uzbek Languages*. *Eurasian Research Bulletin*, 6, 65–70. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/799>
24. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). *Semantic Properties of Anthroponyms*. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.626>
25. Khamidovna, N. N. (2022). *THE DENOTATION AND CONNOTATION OF A WORD*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 382-388. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1242>
26. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). *Categorization in Modern Linguistics*. *Miasto Przyszlosci*, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>